

QARSHI SHAHRIDAGI QO'RG'ONCHA JOME' MASJIDI: O'RGANILISH VA TA'MIRLANISH TARIXI

*Qo'yliyev Ravshon Maxmanazarovich,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qarshi shahrida joylashgan Qo'rg'oncha jome' masjidining tarixi, uning ilmiy, tarixiy va injener-geologik jihatdan o'rganilishi, qurilish uslubi, masjid qurilishida ishlatilgan materiallar, masjidning o'rganilgan vaqtdagi saqlanish holati, masjididagi tarixiy bitiklar hamda masjidning tamirlanish tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar; Sajdagoh, xonaqoh, vaqf, mutavalli, dahma, kapitel, stela, ravoq, mehrob, abjad, trapesiya, paralleloiped, nasta'liq, suls, nasx

МЕЧЕТЬ КОРГОНЧА ДЖОМЕ В ГОРОДЕ КАРШИ: ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ И РЕНОВАЦИИ

*Койлиев Равшон Махманазарович,
преподаватель Национального университета Узбекистана имени -Мирзо Улугбека.*

Абстракт. В данной статье рассмотрена история мечети Курганча Джаме, расположенной в городе Карши, ее научное, историческое и инженерно-геологическое изучение, метод строительства, материалы, использованные при строительстве мечети, состояние сохранности мечети на освещенное время изучения, исторических надписей в мечети и восстановления истории мечети.

Ключевые слова; Саждагoh, ханака, вакф, мутавалли, дахма, капитель, стела, крыша, михраб, абджад, трапеция, параллелепипед, насталик, сулс, насх

KORGONCHA JOME MOSQUE IN KARSHI CITY: HISTORY OF STUDY AND RENOVATION

*Kuyliyev Ravshon Makhmanazarovich,
teacher at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.*

Abstract. In this article, the history of the Kurganacha Jame Mosque located in the city of Karshi, its scientific, historical and engineering-geological study, the construction method, the materials used in the construction of the mosque, the state of preservation of the mosque at the time of the study, the historical inscriptions in the mosque and the renovation of the mosque history is covered.

Keywords; Sajdagoh, khanaqah, waqf, mutavalli, dahma, capital, stela, roof, mihrab, abjad, trapezoid, paralleloiped, nastaliq, suls, naskh

Kirish. Qarshi shahri O'zbekistonning janubiy viloyatlaridan biri –Qashqadaryo viloyatining markazi bo'lib, u Pomir-Oloy tog' tizmasining g'arbiy chekkasida, Qarshi vohasida joylashgan. Mil. av. VII asrda Qarshi hududida ilk manzilgoh shakllanganligi va uning atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralganligi aniqlangan. Qarshi shahri qadimgi So'g'diyona shaharlari yoki mulklaridan biri sifatida tanilib, u so'g'dcha Naxshab deb atalgan. Shuningdek shaharga nisbatan Nasaf atamasi ham ishlatiladi va bu nom arablar fathidan keyin xalq orasida va adabiyotlarda paydo bo'lgan[1].

Qarshi shahrining jome' masjidlaridan biri aholi va jamoatchilik orasida Qo'rg'oncha nomi bilan keng tanilgan. Ammo mazkur sajdagoh Xonaqoh hamda Qilichbek qo'rg'oncha jome' masjidining nomlari bilan ham ma'lum. Ayrim ilmiy adabiyotlarda va matbuot sahifalarida u "Qo'rg'oncha" mahallasida joylashgan Xonaqoh jome' masjidining deb ko'rsatilgan. Hozirgi vaqtda Qarshi shahri namozxonlari va diniy ulamolari Qilichbek qo'rg'oncha jome' masjidining nomini tilga olishadi va bunday nomda atalishiga asosiy sabab qilib ibodatgohning Qilichbek qo'rg'oncha mahallasida joylashganligi aytiladi[2]. Qo'rg'oncha Qarshi shahrining katta va mashhur mahallalaridan biri sifatida eslab o'tilgan hamda bu yerdan chiqqan kishilar Qo'rg'onchagiy nisbasini ham olishgan[3]. Sobiq sho'rolar davrida jome' masjidining Qarshi shahrining Sputnik ko'chasida joylashgan, deb qayd etilgan[4]. XX asrning 50 yillarida masjidning somonxona sifatida foydalanishgan. Qarshi shahri hududidagi jome' masjidlarida ichida Qo'rg'oncha

tarkibida turli inshootlar –chillaxona, minora, hovuz va toshqudug‘i mavjudligi bilan yagona hisoblanadi. A.Jumanazarov 1924 yilgi ma‘lumotlarga asoslanib masjidning vaqf mulklari ko‘pligini va ular orasida Kasbi amlokidagi Mo‘g‘ulon qishlog‘i haqida alohida to‘xtalib, bu yerdan tushadigan daromaddan masjid imomlari, so‘fi va mutavallisiga qancha haq to‘lanishini yozgan[5].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Qo‘rg‘oncha majmuasining o‘rganilish tarixiga nazar tashlansa, bu yerda dastlabki tadqiqot ishlari 1943 yilda Qashqadaryo viloyati me‘moriy yodgorliklarini kuzatish bo‘yicha ekspeditsiya uyushtirilgan va mazkur ekspeditsiya materiallarining muallifi shu sohaning mutaxassisi A.Zaynutdinov bo‘lgan. 1954 yili majmua va uning tarkibidagi ob‘ektlar Girshberg tomonidan suratga olingan. Fotomateriallar 10 dona va ular bu yerdagi binolarning holati va umumiy ko‘rinishi haqida tasavvur beradi. Majmua, shuningdek me‘moriy yodgorliklar bo‘yicha mutaxassislarining tadqiqotlari natijasi bo‘lgan ilmiy adabiyotlarda eslatib o‘tilgan. L.Yu.Mankovskaya risolasi[6] hamda R.Abdurasulev va L.Rempel[7] muallifligidagi ilmiy maqolada Qarshidagi ushbu majmua zikr etilganligini ta‘kidlash lozim.

Majmua 1985 yili Uz NIPI restavratsiya instituti tomonidan o‘rganilgan, texnik holati kuzatilgan, tekshirilgan. Hovuz, dahmaning holati qoniqarsizligi, shuningdek minora buzilib g‘ishtlari va boshqa qurilish materiallari yig‘ishtirib olinganligi aniqlangan. Binolarning poydevorlari topilmagan. Yodgorlikning devorida yoriqlar mavjudligi va uning deformatsiyaga uchraganligi aniqlangan. Masjid tomi vassali va bolor ustiga yopilgan bo‘lishiga qaramay, u ham abgor holatda bo‘lgan. Majmua hovlisi, bog‘i, tevarak-atrofi obodonlashtirilmaganligi kuzatilgan. Shu sababdan ham majmuani restavratsiya qilish zaruriyligi ta‘kidlangan. Ta‘mirlash ishlarining metodikasi ishlab chiqilgan va ulardan foydalanilgan holda majmua yodgorliklarini hajmiy-tarhiy jihatdan o‘rganish rejasi ishlab chiqilib me‘moriy-arxeologik tadqiqot amalga oshirish lozimligi va bu ishlar binodagi o‘zgarishlarni kuzatishda natija berishi qayd etilgan. Injenerlik tadqiqotlari uchun tavsianomalar ham berilgan[8].

Tadqiqot metodologiyasi.

Majmuada, shuningdek dahmali va qabrtoshli eski qabriston, darvozaxona ham bor. Binolar ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, majmuadagi imoratlar hamda inshootlar turli davrlarda qurilgan va bunyod etilgan. Darvozaxona, dahma, hovuz va minora tadqiqotchilar fikricha, bu yerda dastavval qurilgan inshootlar jumlasiga kiradi. O‘zining hajmi va loyihazoslik qurilishiga ko‘ra Qo‘rg‘oncha jome‘ masjidi ikki taraflama ayvonga ega bir xonali yoki bir kamerali inshoot bo‘lib, uning tolori tarhiga ko‘ra to‘rtburchak, bolorli-tirgakli konstruksiyaga tayanuvchi yassi tomndan tarkib topgan. Uning o‘lchamlari quyidagicha: 18,57x18,53 m. Shimol va sharq tarafdin ayvon bilan o‘ralgan. 1985 yili masjidda amalga oshirilgan tadqiqot natijasida uni ichki devorlarining sirti ko‘p qatlamli ganch suvoq bilan qoplanganligi aniqlandi. Masjid qishki qismi hamda ayvonining zamini ya‘ni poli pishiq g‘isht bilan terib chiqilgan. U yer sathidan 150 sm. baland joylashgan. 1870-1880 yillari masjid eski binosi yonboshidan qo‘shimcha qurilish amalga oshirilgan bo‘lib, uning sokoli rus to‘g‘ri burchakli g‘ishti (24x20x6 sm) bilan ko‘tarilgan.

Masjid ichkarisida e‘tiborni o‘ziga tortadigan unsurlariga uning o‘ymakori naqsh-u nigor bilan bezatilgan boshali (kapitelli) tayanch ustunlaridir. 1985 yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra ganchdan qilingan panjaralar hamda o‘ymakori yog‘och eshiklar qoniqarli ahvolda bo‘lgan.

Tahlil va natijalar. Majmua tarkibiga kiruvchi kichkina qabriston yoki dahmali mozor masjidga g‘arb tomondan tutash joylashgan va unga kichik darvozaxona orqali kiriladi. Darvozaxona to‘rtburchak pishiq g‘isht, ya‘ni g‘ishti obi bilan ko‘tarilgan. Mozor masjiddan devor bilan ajratilgan bo‘lib, uning o‘rtasida pishiq g‘ishtdan ko‘tarilgan kichik dahma hamda dahmaga tayangan holda tosh lavh – stela qo‘yilgan. Mahalliy xalq o‘rtasida dahma va tosh asli afg‘on bo‘lgan xalif Abdurahmonga bag‘ishlangan degan noto‘g‘ri tasavvur bor.

Masjidning minorasi ko‘zdan kechirilganda, XX asrning 80 yillarida majmua qarovsiz holda yotganidan bo‘lsa kerak, u vayrona ahvolda, g‘ishtlari va boshqa qurilish materiallari majmua bir burchagida alohida qilib yig‘ib qo‘yilgan bo‘lgan. Minora borligini uning fundamentidan bilish mumkin edi. Bu yerda tekshirish olib borgan tadqiqotchilarning fikricha bir zamonlar baland va ko‘rkam minoraning pishiq g‘ishtlari 1974 yili yig‘ishtirib olinib bir chekkaga to‘plab qo‘yilgan[9]. O‘z vaqtida minora g‘ishtlar va rang berilgan ganchlar, koshinburrish g‘ishtchalar va uch qatorli sharafa bilan birga ziyatlangan bo‘lgan.

Bundan tashqari majmua tarkibidagi hovuz ham xaroba holida bo‘lgan. Uning hajmi 225,6 m²ni tashkil etgan. U tosh bloklardan ko‘tarilgan bo‘lishiga qaramay, devori buzilgan, o‘sha vaqtda tosh

bloklar hovuz ichiga tushib ketgani, ba'zilar esa cho'kib ketgani va o'tirib qolgani kuzatilgan. Hovuz suv bilan to'ldirilmaganligi ham uning ayrim joylarining vayron bo'lishiga olib kelgan.

Majmuaning darvozaxonasi kvadrat pishiq g'ishtdan inshoot etilgan gumbazli inshoot bo'lib, uning hajmi 28,10 m²ni tashkil etgan. O'zining hajm-loyihasoqlik tarhiga ko'ra u to'g'ri burchakli inshoot va uning tashqi o'lchamlari 3,4x2,68 m. Majmuaning atrofi o'sha vaqtda loy suvoqda xom g'ishtdan ko'tarilgan devorga ega bo'lib, uning nurab qolganlii kuzatilgan.

Masjidning qishki toloridan ayvonga 5 ta eshik orqali chiqish mumkin va ularning uchasi shimoliy ayvonda, ikkitasi sharqiy ayvonda joylashgan. Eshiklar yog'ochdan tayyorlangan va ular ustida ganchdan qilingan yoysimon panjaralar o'rnatilgan.

Qo'rg'oncha jome' masjidining epigrafikasi 1985 yilda mazkur binoni ta'mirlash maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilganda o'rganilgan. Mehrob ravoqi ustida "Basmalla", ikki doira orasida esa "Oyat al - Kursi", kichik doira ichida aynan shu oyatning ayrim jumalari o'z aksini topganligi kuzatilgan. Masjidning ichidagi ustunlardan biridagi hamda ayvon sharqiy qanotidagi ustun bitigi o'qilgan va tarjima qilingan. Ayvon ustunida "oliy hazrat farmoniga ko'ra usta Pir Nazar ibn Rahim ustunga naqsh solgan" va bu ishning qaysi sanada bajarilgani aniqlangan. Bitikni o'qishda ayrim nuqsonlar va xatolar ko'zga tashlanadi. Masjid ichidagi bololardan biridagi tarixiy yozuv e'tiborsiz qoldirilgan.

Masjidning Qarshi shahrida bunyod etilishi tarixiga nazar tashlasak, bu haqda quyidagi fikr-mulohazalar mavjud. Masjidning asoschisi sifatida Abdurahmon xalifa eslab o'tiladi. Mazkur shaxsning Qarshi shahrida musulmonlar uchun sajdagoh qurishi haqiqatga yaqin, chunki masjid yonida qurilgan dahma va qabrtosh unga bag'ishlangan va u naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi hamda uning faoliyati XVIII asrning oxiri – XIX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi[10]. Abdurahmon Qo'rg'onchada irshod masnadida o'tirgan va bu mahalla naqshbandiya-mujaddidiyaning markaziga aylangan[11]. Uning muridlaridan biri sifatida tilga olingan Abduvohid ibn Abdurahmon al-Buviy asli Rossiyalik bo'lib, u naqshbandiya-mujaddidiyani o'z yurtida yoyishda katta rol o'ynagan.

Qo'rg'oncha jome' masjidi 1992-1993 yillar orasida ta'mirlangan, ayrim binolari qayta tiklangan, qurilgan va 1993 yildan e'tiboran o'z faoliyatini boshlagan[12]. Qayta qurilgan va tiklangan minoraning hozirgi vaqtdagi balandligi 12 m ni tashkil etadi. Masjidni obodonlashtirish ishlari 2015-2016 yillari ham davom etdi va aynan shu yillari uning xonaqosi, tahoratxonasi va tashqi tarafi kapital ta'mirlandi.

Qo'rg'oncha jome' masjidi ayvoni devorida aylana shakl ichida xattotlik san'atiga xos bitiklar tushirilgan. Mazkur bitik Qo'rg'oncha masjididagi ilgari aynan shunday xattotlik namunasini bir oz o'zgartirilgan holatdagi qayta tiklanishi sifatida amalga oshirilgan. Doira qoq markazida nasta'liqda jigarrang harflarda feruza rang manzarada "Basmalla", uning atrofida nasx xatida oq rangli harflarda feruza rang manzarada geometrik naqshlar bilan mutanosib ravishda "Ixlos" surasi va aylananing hoshiyalari bo'ylab suls xatida xuddi shunday manzarada Qur'oni karim "Baqara" surasi 255 oyati (Oyat al-Kursi) yozilgan.

Masjidning ko'ndalang bolor(to'sin)idagi matnlar nasta'liq yozuvida havorang manzarada oq harflar bilan yozilgan va unda masjidning qayta qurilishi vaqti hamda ustalar haqida ma'lumotlar berilgan. Harf va kalimalar notekis joylashtirilgan va matnni yozishda mutanosiblikka rioya etilmagan. Matn satrlari gorizontall joylashgan, jumlar uchta anor shaklida o'simlik naqshlari bilan ajratilgan. Matnda ayrim xatolar ham mavjud va ularni o'z holicha qoldirdik.

Matn • Текст • Original text

// درک مزات هفینخ میود نطب // کش بیر یب انب یل اع نی تخ اس // ۱۳۳۱ دجسم یناٹ ینب خیرات // 1331 کی یس دص مس رازہکی ترجم لاس // یلقن ادرم هاش (!) مہتاک // وا خیرات دوش ...اظفا

// یج اح ضوع ہمداخ ناج اباب اتس و اش اقن //

Tarjima • Перевод • Translation

Masjidning takroriy qurilishi tarixi - hijriy 1331 (milodiy 1913/1914) yil.

Shak-shubhasiz mazkur baland bino bunyod etildi.

Ikkinchi xanifa avlodi uni yangiladi (yangidan kurdi).

Uning ta'rixi ...?) lafzi bo'ldi.

Uning kotibi - Shohimardon quli [edi].

Uning hijriy sanasi ming uch yuz o'ttiz bir- 1331/1913-1914.

Naqqoshi – usto Bobojon, uning xodimi – Avaz Hoji.

Qo'rg'oncha xonaqoh masjidi yonidagi dahma va undagi qabrtosh yodgorligi

Xonaqo-masjidining g'arbiy qismida atrofi devor bilan o'ralgan kichkina qabriston va dahma

joylashgan. Qabristonning umumiy maydoni taxminan 25X50 metrni tashkil etadi. Uning shimoliy yuqori qismida yonma-yon ikkita mozar joylashgan bo‘lib, hozirgi paytda qayta ta’irlangan. Qabrlarning joylashuv tartibi an’anaviy, ya’ni bosh tomoni shimolga qaratilgan. Mazkur qabriston bu yerdagi arxitektura yodgorligi bilan bog‘langan bo‘lib, uning tarixiy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu yerda to‘g‘ri parallelepiped yoki mehrob shaklidagi tosh taxta yoki lavh (stela) qabrtosh joylashgan. Sag‘ananing janubiy tarafi quyi qismida XIX-XX asrlarga oid qabrtosh bitiklar mavjud. Mazkur qabrtoshlarning bitiklari defekt holida bo‘lganligi sababli o‘qilishi mushkul. Ular uzunchoq trapesiya shaklidagi yodgorlik sanaladi.

Tosh taxta oq marmardan yasalgan. Uning shimoliy yuzasi silliqlangan, boshqa tarafi esa qisman ishlov berilgan. Bitik amalga oshirilgan yuzasi pastdan yuqoriga tomon kichrayib ketgan. Epitafiya 18 qatorni tashkil etadi va ular relefli hamda yaxshi saqlangan. Matnlar nasta’liq xatida yozilgan hamda relefli chiziqlar ustiga terilgan.

Qabrtoshning aylanma gardishi uchburchak shaklini beruvchi naqsh-bezaklar bilan to‘ldirilgan. Yodgorlik sohibining vafoti sanasi qabrtoshning orqa tomonida berilgan bo‘lib, abjad (raqamlarni arab harflarida berilishi) hisobida kitobat qilingan. Qayd qilingan va o‘qilgan stela dahma devoriga mustahkamlangan va vertikal holatda turadi.

Qabrtoshning aylanma gardishi uchburchak shaklini beruvchi naqsh-bezaklar bilan to‘ldirilgan. Yodgorlik sohibining vafoti sanasi qabrtoshning orqa tomonida berilgan bo‘lib, abjad (raqamlarni arab harflarida berilishi) hisobida kitobat qilingan. Qayd qilingan va o‘qilgan stela dahma devoriga mustahkamlangan va vertikal holatda turadi.

texte

۱. نیده ازل. ۲. قَدْبُزْ نَیْقَتْمُ الْعُودُقْ نَیْقَقْ حُمْلَا تُشَوَّغْ وَ نَیْفِرَاعِ الْعَا. ۳. بَطَّقْ رَطْعُمْلَا دُمَشْمَ وَ رُطْمُ الْعَا. ۴. دَقْرَمَ اذِه. ۵. تاجردی لصل اولاء ای بن الاریخ بیان یربکلا قمی نغ. ۶. بحاص لیل ای داهل الیل اب فیراع الای و فطصم الای عی رشل الای عی دمحم الای ول ان اهر ب. ۷. ای ادب الای ف ای ان الای جاردن ای قی رطیل ای دی دمحم الای قی الای ول. ۸. مال سالال خیش نام حر الای دب ع خیش الای. ۹. خوی شل الای خیش نافر الای و ففرع الای بحاص ان اماما و ان خیش نی مل سم الای. ۱۰. الای ن اب رال الای رار الای الای دن بشقن الای بطق نغ و هیبا نغ ای دن بشقن الای مقرح سبل و زاجم وه و ای دی بدهل الای. ۱۱. الای نغ الای دب ع خیش هحیش نم وه و الای قمرح دب ع. ۱۲. نم وه و ای مظع الای مودخم هج اوخ ناخ ای سوم ترضح الای ن اب رال الای و الای و هخیش نم وه و ای عس دمحم نایم خیش هدل او و. ۱۳. هخیش نم رون موحرم الای خیش الای نیم ج ا مهی ل ع الای اع ت الای. ۱۴. الای ن او ضر الای ن اب رال الای دمحم نایم خیش الای ن اب رال الای بوبحم الای. ۱۵. الای دن بشقن قی دیص. ۱۶. دمحم خیش الای قی قح تل اب لم اکل الای خیش الای باهول الای بوبحم با طق الای. ۱۷. بطق دل و مدقرم هج صم الای اع ت الای رون الای دن مرسل الای الای بی رغ ای ج ا الای خیش الای. ۱۸. الای ن مر ح الای ج ا ن اب مدقرم رون ای دی بدهل الای ن ای دل اواق مر ح. ۱۹.

Tarjima. Перевод. Translation

1. Bu qabr 2., 3., 4., 5., 6. pokiza va xushbo‘y mashhad, oriflar qutbi, haqiqatga yetishganlar madadkori, taqvodorlar peshvosi, zohidlar qaymog‘i, Alloh ma‘rifatiga yetishgan, Alloh [yo‘liga] hidoyat qiluvchi, har bir fursatni g‘animat biluvchi ulug‘lar sohibi, nabiyalar eng yaxshisining noibi, bidoyatda nihoyatga yetishishga hidoyat qiluvchi, 7. Muhammadiy valiyilgining burhoni (hujjati), Mustafaviy shariatining hujjati, shayx ul-islom 8. va musulmonlarning shayxi, shayximiz va imomimiz, irfonu marifat sohibi, shayxlar shayxi 9. Shayx Abdurahmon Naqshbandiy al-Ahroriy ar-Rabboniy 10. ad-Dahbediy, va u Naqshbandiya xirqasini kiyishni ijozat oldi otasi qutb 11. ar-Rabboniy hazrat Musoxon Xoja Maxdum al-A‘zamiydan. Va u 12. Obid Rahmatullohdan va u esa o‘zining shayxi Shayx Abdulahaddan, va u esa o‘zining shayxi 13. va otasi Shayx Miyon Muhammad Saiddan va u ham o‘zining shayxi va otasi 14. Beniyozi va Boqiy [Alloh]ning suyuksisi Shayx Miyon Ahmad ar-Rabboniydan, 15., ularning barchasidan Alloh Ta‘olo rozi bo‘lsin, rahmatli shayx, [Alloh] qabri uzra nur yog‘dysin! qutblar 16. qutbi al-Vahobning mahbubi, haqiqat izlashda komil shayx Muhammad 17. Siddiq Naqshbandiy al-Dahbediy, [Alloh] qabrini nurga to‘ldysin! ibn hoji al-haramayn 18. ash-shayx ul-hoji G‘aribulloh as-Sirhindiy, Alloh taolo yotgan yerini yumshoq qilsin!. 19. Uni Qavomiddin yozdi.

Stelaning boshqa bir yuzasida qabrtoshning o‘rta qismida qiziqarli va kam uchraydigan xronogramma bitilgan bo‘lib, u epitafiya sohibining vafot sanasi bilan cheklanib qolmasdan, balki uning tug‘ilgan sanasi haqida ham ma‘lumot beradi va u quyidagicha:

Matn • Текст • Original text

می مظع رجا ملو هتافو خیرات // اربک ءالصف ملو هتدالو خیرات

Tarjima • Перевод • Translation

Uning tug'ilgan sanasi va "u fuzaloi kubaro" va vafot tarixi "unga ulug' ajr".

Shayxning tug'ilish sanasi *اربك ءالضف* so'zlaridan abjad bo'yicha /11331721 yil chiqsa, uning vafoti *مىظع رجا* 1224/1809 y. chiqadi.

Xulosa qilib aytganda Qarshi shahridagi Qo'rg'oncha masjidi va unga aloqador majmua Qashqadaryo viloyatining tarixi, madaniyati va me'morchiligining ajoyib namunasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur tarixiy yodgorlik mang'itlar davrida bu yerda amalga oshirilgan me'morchilik san'atidan dalolat beradi. Bundan tashqari majmua naqshbandiya-mujaddidiya tarixiga ham yangi ma'lumotlar berishi bilan ajralib turadi. Masjid kelajakda nafaqat namozxonlar, shu bilan birga ziyoratchilarning ham doimiy tashrif ob'ektiga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Бартольд В. Сочинения . Т.1 . – Москва, 1963. - С.190.
2. <https://nasafziyo.uz/>
3. Жуманазаров А. Насаф. – Тошкент, 2007. – Б.79
4. Предварительные работы по комплексу мечети Курганча в г. Карши. Узбекский научно-исследовательский и проектно-изыскательский институт консервации и реставрации памятников культуры. –Ташкент, 1985.–С.6
5. Жуманазаров А. Насаф. – Тошкент, 2007. – Б.116.
6. Маньковская Л. Архитектурные памятники Кашкадарьи. - Ташкент, 1979.
7. Абдурасулев Р., Ремпель Л. Неизвестные памятники бассейна Кашкадарьи / Искусство зодчих Узбекистана. – Ташкент, 1962.
8. Предварительные работы по комплексу мечети Курганча в г. Карши. Узбекский научно-исследовательский и проектно-изыскательский институт консервации и реставрации памятников культуры. – Ташкент, 1985.
9. Реставрационное задание на выполнение научно-исследовательских и проектно-изыскательских работ по реставрации комплекса мечети Курганча в г. Карши. –Ташкент, 1985. – с.3
10. Вақтли матбуотда Қўрғонча жомеъ масжиди 1826 йили Самариддинхон деган шахс томонидан қайтадан қурилган деган фикр-мулоҳаза ҳам мавжуд.
11. Жуманазаров А. Насаф.. – Тошкент, 2007. – Б.81
12. Қўрғонча жомеъ масжиди 2001 йили Ўз Р Адлия вазирлиги томонидан рўйхатга олинган